

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.05/30.10.2020.Qx.126.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI**

TURDIYEV FARXODJON IBROXIMOVICH

**QATTIQ BUG‘DOY YETISHTIRISHDA MA‘DANLI O‘G‘ITLARNI
TABAQALAB QO‘LLASHNING TUPROQ UNUMDORLIGI VA DON
HOSILDORLIGIGA TA‘SIRI (Andijon viloyatining shartli sug‘oriladigan
eroziyaga moyil tipik bo‘z tuproqlari sharoitida)**

06.01.01-Umumiy dexqonchilik. Paxtachilik

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

ANDIJON–2024

UDK: 633.11; 631.454; 631.432

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation’s abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on agricultural sciences**

Turdiyev Farxodjon Ibroximovich

Qattiq bug‘doy yetishtirishda ma‘danli o‘g‘itlarni tabaqalab qo‘llashning tuproq unumdorligi va don hosildorligiga ta‘siri (Andijon viloyatining shartli sug‘oriladigan eroziyaga moyil tipik bo‘z tuproqlari sharoitida).....3

Турдиев Фарходжон Иброхимович

Влияния дифференцированного внесения минеральных удобрений на плодородие почвы и урожайность зерна при возделывании твердой пшеницы (в условиях условно орошаемых склоном к эрозию типично серозёмных почвах Андижанской области).....21

Turdiyev Farxodjon Ibroximovich

The influence of differential application of mineral fertilizers on soil fertility and grain yield when cultivating durum wheat (in conditions of conditionally irrigated typically gray soils prone to erosion in the Andijan region).....39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....43

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.05/30.10.2020.Qx.126.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI**

TURDIYEV FARXODJON IBROXIMOVICH

**QATTIQ BUG‘DOY YETISHTIRISHDA MA‘DANLI O‘G‘ITLARNI
TABAQALAB QO‘LLASHNING TUPROQ UNUMDORLIGI VA DON
HOSILDORLIGIGA TA‘SIRI (Andijon viloyatining shartli sug‘oriladigan
eroziyaga moyil tipik bo‘z tuproqlari sharoitida)**

06.01.01-Umumiy dexqonchilik. Paxtachilik

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

ANDIJON–2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Qx952 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari institutida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) ilmiy kengash veb sahifasida (www.andqxai.uz;) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Komilov Komiljon Sobirovich qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, professor
Rasmiy opponentlar:	Xoshimov Ibroxim Nabiyevich qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor Karabayev Ikramjan Turayevich qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Toshkent davlat agrar universiteti

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya himoyasi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi PhD.05/30.10.2020.Qx.126.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «15» may soat 13.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 170600 Andijon tumani, Kuygan-yor shaharchasi, Oliygo'ha ko'chasi 1-uy. Tel.: (998-74) 224-02-82; faks: (998-74) 224-02-62; e-mail: andqxai@iexat.uz; Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti Ma'muriy binosi, 1-qavat, anjumanlar zali).

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bilan Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 62168/H raqamli bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170600, Andijon tumani, Kuygan-yor shaharchasi, Oliygo'ha ko'chasi 1-uy, Axborot-resurs markazi binosi. Tel.: (998-74) 224-02-82.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «31» may kuni tarqatildi.
(2024 yil «30» may dagi 198 -raqamli reestr bayonnomasi).



A.Isashov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
ustasi q.x.f.d., professor.

A.N.Jo'rayev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kengash q.x.f.d., professor.

Z.M.Jumaboyev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi q.x.f.d.,
professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Qattiq bug‘doy (*Triticum durum*) muhim oziq-ovqat ekinlaridan biri bo‘lib, aholini makaron va qandolat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda asosiy donli ekin hisoblanadi. “Bugungi kunda dunyoda qattiq bug‘doydan yiliga 36 million tonna don yetishtirilmoqda. Ushbu yetishtirilayotgan don O‘rta yer dengizi havzasi, Amerika qo‘shma shtatlarining janubi-sharqiy va Kanadaning shimoliy tekisliklari, Meksikaning shimolidagi cho‘l hududlari ulushiga to‘g‘ri keladi”¹. Jahon miqyosida 2020-2021 yillarda qattiq bug‘doy donini yetishtirish biroz o‘ssishi kuzatildi. Jumladan, AQShda ishlab chiqarish yiliga 12% ga oshdi. “Yevropa Ittifoqida, Ispaniya va Gresiya yillarda ishlab chiqarish yuqori bo‘lgan davlatlar hisoblanib, boshqa mamlakatlarda ishlab chiqarish pasayishi kuzatilmoqda. Jumladan, Italiyada va Shimoliy Afrikada ham ishlab chiqarish kamaymoqda. Marokash, Tunis va Jazoirning g‘arbiy qismida 2019-2020 yillarda qurg‘oqchil sabab qattiq bug‘doyni yetishtirish pasayishi kuzatilganligi aniqlangan”². Natijada ko‘plab mamlakatlarda qattiq bug‘doy ekin maydonini kamayishiga olib keldi.

Hozirgi kunda qattiq bug‘doy don hosilini yetishtirishga talab kundan kunga oshib borishini hisobga olib oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash hamda aholini makaron va qandolat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda qattiq bug‘doydan sifatli don yetishtirish o‘ta dolzarb masalalardan biri bo‘lib, uni parvarishlash agrotexnologiyalarini takomillashtirib borish bo‘yicha olib boriladigan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda so‘nggi besh yillikda qishloq xo‘jaligi yuqori hosil olish, oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash va organik maxsulot ishlab chiqarishni kengaytirilishi O‘zbekistonning hozirgi kundagi modernizatsiyalash strategiyasining yorqin xususiyatlaridan birini ifodalaydi. “Mahsulot yetishtirishning samarali texnologiyalarining joriy etilishi hamda xo‘jalik va klaster korxonalarining moddiy-texnika bazasi mustahkamlanishi hisobiga 2019 yilda 7 million 130 ming tonna boshoqli don yetishtirilishiga erishildi”³. Respublikamiz qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida “... suv resurslarini boshqarish, suvdan foydalanish va uni iste‘mol qilish bo‘yicha samarali mexanizmlarni joriy etish, o‘g‘itdan foydalanishning samarali amaliyotini joriy etib, tuproq unumdorligini saqlash va oshirish” ga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada import o‘rnini bosuvchi va eksportbop qattiq bug‘doy donini sug‘oriladigan maydonlarda yetishtirishning maqbul agrotexnologiyalarini takomillashtirish borasida ilmiy izlanishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-son O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-

¹ http://www.openfields.it/sito/wp-content/uploads/2016/01/PASTARIA2015_N06_en-artOF.pdf

² <https://www.mellco.com.au/uncategorized/market-update-june-2016/>

³ <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-ishlo-kh-zhaligi-khodimlariga-06-12-2019>

2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizning sug'oriladigan maydonlarda irrigatsiya eroziyasining oldini olish, tuproq unumdorligini saqlash va qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini oshirish bo'yicha K.M.Mirzajanov, Sh.Nurmatov, K.Mo'minov, K.Haydarov, I.Xoshimov, A.Jo'rayev, A.Dehqonov, Z.K.Mo'minova xorijiy mamlakatlarda F.Karam, R.Kabalan, J.Breidi, S.M.Shirazi, N.H.Zardari kabi olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan. Shuningdek, kuzgi qattiq bug'doy navlaridan yuqori va sifatli don hosili yetishtirish texnologiyasi elementlari, jumladan ma'danli o'g'itlar bilan o'g'itlash me'yorlari bo'yicha mahalliy sharoitda R.I.Siddiqov, A.Amanov, N.Xalilov, P.X.Bobomirzaev, N.Turdiyeva hamda xorijda W.J.Hurkman, A.Montazar, F.X.Nagudova, A.Ivanova, M.I.Temmoev, F.Karam kabi olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqotlar olib borilib ishlab chiqarishga tavsiyalar berilgan.

Ammo, Andijon viloyatining irrigatsiya eroziyasiga chalingan tipik bo'z tuproqlari sharoitda kuzgi qattiq bug'doyning ma'danli o'g'itlarga bo'lgan talabini o'rganish hosildorlik salmog'i va don sifatini barqarorlashtirish, yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash bilan birga tuproq unumdorligini saqlash hamda oshirish bo'yicha yetishtirish agrotexnologiyalarni takomillashtirish borasida yetarlicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining IK-№9-sonli bayoni bilan tasdiqlangan "Tuproq unumdorligini saqlash va oshirish bilan birga kuzgi don ekinlaridan yuqori va sifatli don hosili olish agrotexnologiya elementlarini ishlab chiqish" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan (2018-2021 yy).

Tadqiqotning maqsadi ma'danli o'g'itlar me'yorlarining tabaqalab qo'llashning tuproq yuvilishiga, tuproq va oqava suvlar tarkibidagi mikro va makro unsurlar miqdoriga hamda kuzgi qattiq bug'doyni o'sish va rivojlanishi, don hosildorligi va sifat ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

irrigatsiya eroziyasiga uchragan tipik bo'z tuproqlarning agrofizikaviy, agrokimyoviy xususiyatlari hamda tuproq va oziqa elementlarini yuvilishiga o'g'itlar me'yorlarini tabaqalab qo'llashning ta'sirini o'rganish;

irrigatsiya eroziyasiga chalingan tipik bo'z tuproqlari sharoitida kuzgi qattiq bug'doyga ma'danli o'g'itlarni tabaqalab qo'llashni tuproq eroziyon jarayonlari (sug'orish natijasida yuvilayotgan tuproq miqdori, oqova suvi va ularning agrokimyoviy tarkibi)ga ta'sirini aniqlash;

qiyalikni tuprog‘i yuvilgan va yuvilib tushgan qismlarida qo‘llanilgan ma‘danli o‘g‘itlar me‘yorlarini kuzgi qattiq bug‘doyning o‘shish hamda rivojlanishiga, umumiy va maxsuldor poyalarning shakllanishiga ta‘sirini o‘rganish;

ma‘danli o‘g‘itlar me‘yorlarini tabaqalab qo‘llashni kuzgi qattiq bug‘doyning biometrik ko‘rsatkichlari, don hosili va uning sifatiga ta‘sirini o‘rganish;

irrigatsiya eroziyasiga uchragan yerlarning qiyalik darajasiga bog‘liq holda ma‘danli o‘g‘itlarni tabaqalashtirib qo‘llashni kuzgi qattiq bug‘doy yetishtirishning iqtisodiy samaradorligiga ta‘sirini aniqlangan.

Tadqiqotning ob‘ekti sifatida Andijon viloyatining irrigatsiya eroziyasiga chalingan tipik bo‘z tuproqlari, qattiq bug‘doyning “Qaxrabo” navi, ma‘danli o‘g‘it me‘yorlari.

Tadqiqotning predmeti ma‘danli o‘g‘itlar me‘yorlarining tabaqalab qo‘llashning tuproq yuvilishiga, tuproq va oqava suvlar tarkibidagi mikro va makro unsurlar miqdori hamda kuzgi qattiq bug‘doyni, o‘shish va rivojlanishi, don hosildorligi va sifat ko‘rsatkichlariga ta‘siri hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy-tadqiqot ishlarida laboratoriya, dala va ishlab chiqarish tajribalarini qo‘yish, fenologik kuzatuvlar, biometrik o‘lchovlar “Dala tajribalarni o‘tkazish uslublari”, “Методика Государственной инспекции по сортоиспытаниям сельскохозяйственных культур”, tuproqning suv-fizik xossalari o‘rganishda “Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в полевных хлопковых районах”, tajriba dalasidagi tuproqlarining agrokimyoviy xossalari “Методы агрохимических анализов почв и растений Средней Азии” uslubiy qo‘llanmalar asosida olib borildi. Dala tajribalarda olingan natijalarining statistik tahlili B.A.Dospexov uslubi bo‘yicha hisoblangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Andijon viloyatining irrigatsiya eroziyasiga chalingan sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlarida kuzgi qattiq bug‘doy yetishtirishda ma‘danli o‘g‘itlardan foydalanish samaradorligi o‘rganilgan;

kuzgi bug‘doyda ma‘danli o‘g‘itlar me‘yorlarini tabaqalab qo‘llashning tuproqning agrofizik va agrokimyoviy hossalari ta‘siri aniqlangan;

irrigatsiya eroziyasiga uchragan yerlarda kuzgi qattiq bug‘doyning Qaxrabo navidan yuqori don hosili yetishtirishda qiyalikning tuproq zarralari yuvilgan va yuvilib tushgan tuproq zarrachalari o‘tirgan pastki qismiga maqbul oziqlantirish me‘yorlari aniqlangan;

irrigatsiya eroziyasiga uchragan tuproqlarning qiyalikning yuvilgan va yuvilib tushgan qismlarida ma‘danli o‘g‘itlarni tabaqalab qo‘llash bug‘doyning o‘shish va rivojlanishiga ham o‘z tasirini ko‘rsatganligi, qiyalikning tuprog‘i yuvilgan qismida eng ko‘p don hosili $N_{250}P_{175}K_{125}$ kg/ga, yuvilib tushgan qismida esa $N_{200}P_{140}K_{100}$ kg/ga me‘yorlarda oziqlantirish maqbul bo‘lganligi isbotlangan;

tabaqalab o‘g‘itlashda qiyalikning yuvilgan qismida $N_{250}P_{175}K_{125}$ kg/ga, qiyalikning yuvilib tushgan qismida $N_{200}P_{140}K_{100}$ kg/ga me‘yorda oziqlantirilganda donning sifati ko‘rsatkichlari yaxshilanish bilan birga iqtisodiy samaradorlikka

erishilganligi aniqlangan;

Tadqiqotning amaliy natijalari.

Irrigatsiya eroziyasiga chalingan tuproqlarda ma'danli o'g'itlarni tabaqalashtirib qiyalikning yuvilgan qismida $N_{250}P_{175}K_{125}$, yuvilib tushgan qismida $N_{200}P_{140}K_{100}$ kg/ga me'yorlarida qo'llab kuzgi qattiq bug'doyni parvarishlanganda tuproqlarni yuvilib ketishi 3,70-4,67 t/ga, tuproq zarrachalarining yuvilishi 3,2-4,7 t/ga. ga kamayganligi aniqlangan;

irrigatsiya eroziyasiga chalingan tipik bo'z tuproqlari sharoitida qattiq bug'doyni ma'danli o'g'itlar bilan oziqlantirish me'yorlarining oshib borishi bilan o'suv davri 7-15 kungacha uzayishi aniqlangan;

tadqiqotda qiyalikning tuprog'i yuvilgan qismida tuproqdagi umumiy azot, fosfor va kaliyni miqdorlari eroziya ta'sirida yildan yilga kamaya borishi, yuqori me'yordagi ($N_{250}P_{175}K_{125}$ kg/ga) o'g'itlarni qo'llash orqali oziqa moddalarni dastlabki holatida saqlab turish mumkinligi isbotlangan;

tajribaning qiyalikning yuvilgan qismida $N_{250}P_{175}K_{125}$ kg/ga me'yorda qo'lanilganda yuqori don hosili (62,2 s/ga), qiyalikning yuvilib tushgan qismida esa $N_{200}P_{140}K_{100}$ kg/ga me'yorda qo'lanilganda yuqori don hosili (67,1 s/ga) olinib, qiyalikning yuvilgan qismida boshqa variantlarga nisbatan don hosildorligi o'rtacha 0,5-5,3 s/ga, qiyalikning yuvilib tushgan qismida boshqa variantlarga nisbatan don hosildorligi o'rtacha 0,2-8,8 s/ga gacha qo'shimcha qattiq bug'doy doni olingan;

irrigatsiya eroziyasiga chalingan tipik bo'z tuproqlari sharoitida qiyalikning yuvilgan qismida qattiq bug'doyni ma'danli o'g'itlar bilan $N_{250}P_{175}K_{125}$ kg/ga me'yorda qo'llanilganda rentabellik darajasi 4,9-7,7 % gacha, qiyalikning yuvilib tushgan qismida esa $N_{200}P_{140}K_{100}$ kg/ga me'yorda qo'llanilganda rentabellik darajasi 3,7-11,1 % gacha oshganligi aniqlagan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Laboratoriya va dala tajribalari qabul qilingan uslublaridan foydalanilgan holda olingan ma'lumotlarga matematik-statistik ishlov berilishi, nazariy va amaliy natijalarning bir-biriga mos kelishi, tadqiqot natijalarining xorijiy va mahalliy tajribalar bilan solishtirilganligi, aniqlangan qonuniyatlar va xulosalarning asoslanganligi, ilmiy va amaliy natijalar mutaxassislar tomonidan aprobatsiyadan o'tkazilganligi va izlanishlar natijalari amaliyotda keng qo'llanilganligi, tadqiqotlar natijalarini respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilinganligi, dissertatsiya natijalari ilmiy nashrlarda chop qilinganligi bilan izohlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tipik bo'z tuproqlar sharoitida kuzgi qattiq bug'doy ma'danli o'g'it me'yorlari bilan tabaqalab o'g'itlanganda o'simlikning o'sishi, rivojlanishi yaxshilanishi hisobiga tuproq tarkibidagi oziqa elementlarni yuvilishini kamaytirish, ma'danli o'g'itlardan samaraliy foydalanish natijasida ma'danli o'g'itlarning o'simlik bo'yi, poya, boshqoq va donning shakllanishiga ta'siri, donning texnologik sifat ko'rsatkichlari va hosildorlikning oshirish bilan birga iqtisodiy samaradorlik barqaror oshganligi bilan izohlangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati irrigatsiya eroziyasiga chalingan tipik bo'z tuproqlar sharoitida qattiq bug'doyni qiyalik darajasiga qarab tabaqalab

oziqlantirish ma'danli o'g'itlar samardorligini oshirishi, ishlab chiqilgan maqbul o'g'it me'yorlarini qo'llash hisobiga yuqori iqtisodiy daromadga erishilganligi bilan ifodalangan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Andijon viloyatining irrigatsiya eroziyasiga chalingan tipik bo'z tuproqlarida sharoitda kuzgi qattiq bug'doyning ma'danli o'g'itlarga bo'lgan talabini o'rganish, hosildorlik salmog'i va don sifatini barqarorlashtirish, yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash bilan birga tuproq unumdorligini saqlash hamda oshirish uchun yetishtirish agrotexnologiyasini takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

Andijon viloyatining irrigatsiya eroziyasiga chalingan tipik bo'z tuproqlarida qattiq bug'doyning ma'danli o'g'itlar bilan oziqlantirishni maqbullashtirish bo'yicha "Qattiq bug'doy yetishtirishda ma'danli o'g'itlarni tabaqalab qo'llash bo'yicha" nomli tavsiyanoma tasdiqlangan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023 yil 1 iyuldagi 06/34-06/508-son ma'lumotnomasi). Ushbu tavsiyanoma Andijon viloyatining irrigatsiya eroziyasiga chalingan tipik bo'z tuproqlari sharoitida donli ekinlar yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarida qo'llanma sifatida xizmat qilmoqda;

irrigatsiya eroziyasiga chalingan tipik bo'z tuproqlari sharoitida kuzgi qattiq bug'doyga ma'danli o'g'itlarni tabaqalab qo'llab, yuqori va sifatli don hosili olish texnologiyasi 2022 yilda Andijon viloyatining Andijon tumanida joylashgan "Azizbek" fermer xo'jaligida 12,3 gektar, "Davrbek Durbek" fermer xo'jaligida 7,2 gektar, "Rasuljon ziynati" fermer xo'jaligida 8,4 gektar, "Tuxtaboy Soyibjon" fermer xo'jaligida 10,7 gektar, "Ravshanbek Omadbek yulduzi" fermer xo'jaligida 10,1 gektar jami 48,7 gektar maydonlarida joriy etilgan. (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023 yil 1 iyuldagi 06/34-06/508-son ma'lumotnomasi). Buning natijasida kuzgi qattiq bug'doyning "Qaxrabo" navi gektariga 4,0 mln dona unuvchan urug' hisobida ekilib, o'suv davri davomida ma'danli o'g'itlarning tabaqalab, ya'ni qiyalikning yuvilgan qismiga $N_{250}P_{175}K_{125}$ kg/ga me'yorlari bilan oziqlantirilib parvarishlanganda o'rtacha 60,9 s/ga don hosili olinib, $N_{300}P_{210}K_{150}$ kg/ga me'yorda qo'llanilganga nisbatan 1,0 s/ga qo'shimcha don hosili olishga erishilgan.

Qiyalikning yuvilgan qismida $N_{250}P_{175}K_{125}$ kg/ga me'yorda qo'llanilganga 64,6 s/ga don hosili olinib, $N_{300}P_{210}K_{150}$ kg/ga me'yorda qo'llanilganga nisbatan 3,7 s/ga qo'shimcha don hosili olishga erishilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023 yil 1 iyuldagi 06/34-06/508-son ma'lumotnomasi). Natijada o'g'itlarni oshirilgan me'yorda qo'llanilganga nisbatan qiyalikning yuvilgan qismida rentabellik ko'rsatkichi 3,3% ga, qiyalikning yuvilib tushgan qismida 5,4% ga yuqori bo'lganligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dala va laboratoriya tajribalari har yili Qishloq xo'jaligi bilim va innovatsiyalar milliy markazi (QXBIMM), Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti mutaxassislari tomonidan aprobatsiyadan o'tkazilgan va ijobiy baholangan. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda 4 marotaba ma'ruza qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha

jami 7 ta ilmiy maqolalar va 1 ta tavsiyanoma tasdiqlangan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan 2 ta mahalliy va 1 ta xorijiy jurnallarda, xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferentsiya to‘plamlarida 4 ta ma’ruza tezislari nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan ilmiy tadqiqot ishlarining dolzarbligi va zarurati asoslangan. tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda ob‘ekt va predmetlari tavsiflangan, tadqiqot usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyada ijobiy baholanganligi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qattiq bug‘doyni yetishtirish bo‘yicha mahalliy va xorijiy tadqiqotlar bo‘yicha ilmiy manbalar sharhi”** deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalari, xulosalari va takliflari yoritib berilgan. Shuningdek, tadqiqotlar maqsadidan kelib chiqqan holda qattiq bug‘doyning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati va yetishtirish agrotexnologiyalari, qattiq bug‘doyning don sifat ko‘rsatkichlariga ma‘danli o‘g‘it me‘yorlarining ta‘siri, qattiq bug‘doyning qimmatli xo‘jalik belgi-xususiyatlariga sug‘orish me‘yorlari va usullarini ta‘siri, irrigatsiya eroziyasi va unga qarshi kurash choralari bo‘yicha ilmiy tadqiqot–natijalari tahlili yoritilgan. Adabiyotlar tahlili so‘ngida qattiq bug‘doyni agrotexnologiyasi bo‘yicha mamlakatimiz sharoitida juda kam darajada ilmiy tadqiqot ishlari olib borilganligi va ayniqsa irrigatsiya eroziyasiga chalingan tipik bo‘z tuproqlari sharoitida kuzgi qattiq bug‘doygga ma‘danli o‘g‘itlarni tabaqalab qo‘llab, yuqori va sifatli don hosili olish hamda tuproq unumdorligini saqlashda maqbul ma‘danli o‘g‘it me‘yorlarini aniqlash va bu bo‘yicha ilmiy izlanishlarni olib borish dolzarb ekanligi isbotlab berilgan.

Dissertatsiyaning **“Tajriba o‘tkazilgan joyning tuproq-iqlim sharoiti va tajriba o‘tkazish usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida dala tajribalari olib borilgan hududning tuproq hamda iqlim sharoitlari, tajriba tizimi va tadqiqot o‘tkazish usullari, kuzgi qattiq bug‘doydagi olib borilgan fenologik kuzatuvlar, dala tajribalarida qo‘llanilgan agrotexnik tadbirlar hamda kuzgi qattiq bug‘doyning Qaxrabo navining tavsifi keltirilgan.

Dala tajribalari Andijon viloyati, Andijon tumanidagi “Davirbek Durbek” fermer xo‘jaligi dalalarida olib borilib tajriba maydoning tuprog‘i qadimdan sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproq bo‘lib, ushbu hudud lessimon qumoqlardan tashkil topgani bayon qilingan. Barcha qishloq xo‘jalik ekinlarining o‘sishi, rivojlanishi,

ulardan olinadigan hosildorlik ob-havo sharoitiga bog'liq bo'lib, mazkur bobda tajriba o'tkazilgan yillarning ob-havo sharoiti tahlil etilgan.

Irrigatsiya eroziyasiga chalingan maydonlarida ma'danli o'g'itlar bilan ilmiy izlanishlar olib borilganda bir necha xususiyatlarga ahamiyat qaratilishini e'tiborga olib, kuzgi qattiq bug'doyni qiyalik yerlarda olib borilgan dala tajriballari ma'danli o'g'itlarni tabaqalashgan holda jami 8 ta variantda amalga oshirilgan. Tajribalar ikki xil, ya'ni butun qiyalik bo'yicha hamda qiyalikni pastki tekis qismida joylashtirilib, qiyalikni yuvilgan qismida 3 ta, yuvilib tushgan qismida 5 ta tajriba variantlari qo'yilgan. Tajriba tizimi bo'yicha qiyalikni yuvilgan qismida kuzgi qattiq bug'doyda ma'danli o'g'itlarning $N_{200}P_{140}K_{100}$ kg/ga, $N_{250}P_{175}K_{125}$ kg/ga, $N_{300}P_{210}K_{150}$ kg/ga me'yorida hamda yuvilib tushgan qismida mazkur ma'danli o'g'itlarni $N_{100}P_{70}K_{50}$ kg/ga, $N_{150}P_{105}K_{75}$ kg/ga, $N_{200}P_{140}K_{100}$ kg/ga, $N_{250}P_{175}K_{125}$ kg/ga, $N_{300}P_{210}K_{150}$ kg/ga me'yorlarda qo'llanilgan variantlari o'rganilgan.

Tadqiqotlar 3 qaytariqda olib borilib, delyankalarni maydoni 324 m^2 ($90 \times 3,6$) tashkil etgan.

Tajribada kuzgi qattiq bug'doyni o'sishi va rivojlanishini kuzatib borish ishlari umum qabul qilingan uslubnomalar asosida olib borilib, hisob kitoblar qilingan. O'tkazilgan agrotexnik tadbirlar ishlab chiqarishda joriy etilgan tavsiyalar asosida amalga oshirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ma'danli o'g'itlar me'yorlarini tabaqalab qo'llashni tuproqning agrofizikaviy hamda agrokimyoviy xususiyatlariga ta'siri”** deb nomlangan uchinchi bobida ma'danli o'g'itlarni tabaqalab qo'llashni tuproqning agrofizikaviy xususiyatlariga ta'siri, tajriba dalasi tuprog'ning suv o'tkazuvchanligi, dalaning qiyaligiga bog'liq holda tuproqqa singigan va oqova suvlarining miqdorlari, qiyalikni tuprog'i yuvilgan va yuvilib tushgan qismlarida eroziya jarayonlarining kechishi, qiyalikni tuprog'i yuvilgan va yuvilib tushgan maydonlarida tuproqning agrokimyoviy xususiyatlarini o'zgarishi, tuproq unumdorligiga ma'danli o'g'itlarni tabaqalab qo'llashni ta'siri, o'simliklardagi oziqa unusurlarini umumiy shakllarining miqdori, qiyalikni tuprog'i yuvilgan va yuvilib tushgan qismlarida uning tarkibidagi mikroelementlar miqdorini o'zgarishi bayon etilgan.

Izlanishlarda qiyalikni yuvilish darajasi va qo'llanilgan ma'danli o'g'itlarining me'yorlariga boqliq holda tuproqni hajm og'irligi va g'ovakligini o'zgarishni qayd etilgan.

Tadqiqotlarda mavsum boshida qiyalikni yuvilgan qismida tuproqni 0-30, 30-50 sm li qatlamlarida hajm og'irligi tegishli ravishda $1,28$ va $1,31 \text{ g/sm}^3$ ni tashkil qilgan bo'lsa, amal davri oxirida, dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan mos ravishda $0,04-0,06 \text{ g/sm}^3$ va $0,04-0,05 \text{ g/sm}^3$ ga oshganligi qayd etilgan. Tajriba dalasining yuvilib tushgan qismida ham ushbu ko'rsatkich $1,27$ va $1,30 \text{ g/sm}^3$ ga teng bo'lib, o'suv davri oxirida ma'danli o'g'itlar qo'llanilganda bu ko'rsatkich tuproqni 0-30 sm li qatlamida $1,32-1,35$ va 30-50 sm li qatlamida $1,34-1,36 \text{ g/sm}^3$ bo'lganligi qayd etilgan.

Bundan ko'rinib turibdiki o'suv davri oxirida tuproqning hajm og'irligi ortgan bo'lsada eng yaxshi ko'rsatkich tuproqning yuvilgan qismida ma'danli o'g'itlar

me'yorlari oshirilgan 2-3-variantlarda kuzatilib 0-30 sm li qatlamda o'rtacha 1-variantga nisbatan 0,01-0,02 g/sm³ ga kam zichlashganligi aniqlangan.

Tajriba dalasining yuvilib tushgan qismida esa bu ko'rsatkich o'suv davri boshida 0-30 va 30-50 sm li qatlamlarda o'rtacha 1,27 va 1,30 g/sm³ bo'lib, o'suv davri oxirida ma'danli o'g'itlar qo'llanilganda 1,32-1,35 va 1,34-1,37 g/sm² ni tashkil etganligi aniqlandi. Bundan ko'rinib turibdiki yuvilgan qismiga nisbatan tuproqni yuvilib tushgan qismida ko'proq (0,02 g/sm³) zichlashgan bo'lsada eng yaxshi ko'rsatkich gektariga N₂₅₀P₁₇₅K₁₂₅ kg ma'danli o'g'itlari me'yori qo'llanilganda kuzatilib, 1,33-1,35 g/sm³ ni tashkil etgan.

Ma'danli o'g'itlarning oshirilib tuproqning yuvilgan qismida o'g'itlar me'yorlari N₂₀₀P₁₄₀K₁₀₀ kg/ga qo'llanilganda 0-30 sm qatlamda hajm og'iriligi 1,34 g/sm³ ni tashkil etgan bo'lsa, tuproqning yuvilib tushgan qismiga shu o'g'it me'yori qo'llanilganda bu ko'rsatkich 1,33 g/sm³ ni tashkil etgan.

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, irrigatsiya eroziyasi ta'sirida tuproqni ma'lum qismini yuvilishi va dispersiyalanishga uchrashi natijasida tuproqning unumdor qatlami kamayib hajm og'iriligi ortishi kuzatilgan.

Irrigatsiya eroziyasiga chalinish darajasiga qarab ma'danli o'g'itlarni me'yorlarini tabaqalab qo'llashni tuproqni g'ovaklik xususiyatlarini o'zgarishiga ta'siri ham aniqlanib, tajriba variantlarida hajm massasining ortishi bilan g'ovaklikni kamayib borishi kuzatilgan. Qiyalikni yuvilgan qismida ma'dan o'g'itlari N₂₀₀P₁₄₀K₁₀₀ kg/ga me'yorda qo'llanilgan 1-variantda tuproqning 0-30 va 30-50 sm li qatlamlariga mutanosib ravishda tuproqni g'ovakligi 50,4 va 49,6% ni tashkil qilib, variantlar bo'yicha biroz kamayib borayotganligi aniqlangan (1-rasm).

Tajribada tuproqni suv o'tkazuvchanligini aniqlanganda qiyalikni yuvilgan qismida kuzgi qatiq bug'doy urug'larini ekishdan oldin 2019 yilda jami 6 soat davomida 1882 m³/ga ni tashkil qilgan bo'lsa, yuvilib tushgan qismida esa bu muddatda 1953 m³/ga suv singdirgani ma'lum bo'lgan.

Amal davrining oxirida qiyalikni yuvilgan qismida tuproqni suv o'tkazuvchanligi bo'yicha yuqori ko'rsatkich ma'danli o'g'itlari N₂₅₀P₁₇₅K₁₂₅ kg/ga me'yorda qo'llanilganda qayd etilib, 659 m³/ga suv singdirgan. Bu ko'rsatkich ma'danli o'g'itlari N₂₀₀P₁₄₀K₁₀₀ kg/ga va N₂₀₀P₁₄₀K₁₀₀ kg/ga me'yorda qo'llanilganga nisbatan 50-96 m³/ga me'yorda ko'proq suv singishini ta'minlaganligi qayd etilgan.

Qiyalikni yuvilib tushgan qismida esa amal davrining oxirida tuproqni suv o'tkazuvchanligi bo'yicha yuqori ko'rsatkich (690 m³/ga) ma'danli o'g'itlari N₂₀₀P₁₄₀K₁₀₀ kg/ga me'yorda qo'llanilganda aniqlanib, o'g'it me'yorlari oshirilgan va kamaytirilgan variantlarga nisbatan suv singishi 50-91 m³/ga ortgan.


Shuningdek, tuproqning yuvilgan qismiga nisbatan yuvilib tushgan qismida 190 m³/ga kam suv sariflangani qayd etilgan.

Izlanishlarda oqova suvlarini chiqish miqdorlarini dalani yuvilish darajasiga qarab o'rganilib, qiyalikni yuvilayotgan qismida har bir sug'orishda sarf qilingan suvni 60-70 % qismi tuporoqqa singigan bo'lsa 35-38 % qismi oqova bilan chiqib kelganligi, yuvilib tushgan qismda sug'orishga sarflangan suvni 86-90% tuproqqa singanligi va 10-12% oqavaga chiqib ketganligi aniqlangan.

Qo‘llanilgan ma‘danli o‘g‘itlarning me‘yorlaridan qat‘iy nazar oqovani chiqishi faqat dalani qiyalik darajasiga qarab ko‘proq bo‘lganligi aniqlangan.

Tajriba maydonining qiyalikni tuprog‘i yuvilgan qismida oqova suvi bilan yuvilib tushgan loyqa miqdori, birinchi suvda ma‘danli o‘g‘itlarni $N_{200}P_{140}K_{100}$ kg/ga me‘yorda qo‘llanilgan variantida 11855,3 kg/ga ni tashkil etgan bo‘lsa, $N_{250}P_{175}K_{125}$ kg/ga me‘yorda qo‘llanilgan variantida bu ko‘rsatkich 9768,2 kg/ga ni tashkil qilgan.

Maydonning yuvilgan qismida eng kam ko‘rsatkich $N_{300}P_{210}K_{150}$ kg/ga me‘yorda qo‘llanilgan variantida kuzatilib 8533,9 kg/ga ni tashkil etgan.



1-rasm. Tuproqni g‘ovaklik xususiyatlarini o‘zgarishi, % 2019 y.

Tadqiqotlarda ma‘danli o‘g‘itlar me‘yorlari oshirilganda o‘simlikning ildiz tizimi yaxshi rivojlanishi xisobiga loyqaning yuvilishi kamayganligi kuzatilib, o‘sv davridagi uchinchi suvda maydonning yuvilgan qismining $N_{200}P_{140}K_{100}$ kg/ga me‘yorda qo‘llanilgan variantida 3124,1 kg/ga ni tashkil etgan bo‘lsa, eng kam ko‘rsatkich $N_{300}P_{210}K_{150}$ kg/ga me‘yorda qo‘llanilgan variantida kuzatilib, 1988,3 kg/ga ni tashkil qilgan.


Tajriba so‘ngida umumiy uchta suvda mavsum davomida loyqaning yuvilishi xisoblanganda maydonning yuvilgan qismida yuqoridagi qonuniyat saqlangan holda ma‘danli o‘g‘itlar me‘yori oshirilganda loyqaning yuvilishi kamayganligi kuzatilib, $N_{300}P_{210}K_{150}$ kg/ga me‘yorda qo‘llanilgan variantida 4814,3 kg/ga ni tashkil etgan bo‘lsa, maydonni yuvilib tushgan qismida shu mineral o‘g‘it me‘yorlari qo‘llanilganda bu ko‘rsatkich 3803,4 kg/gani tashkil etgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, maydonning yuvilgan qismiga nisbatan yuvilib tushgan qismda loyqa kam yuvilish xisobiga tuproq unumdorligi ko‘proq saqlab qolingani kuzatilgan.

Tajribada qiyalikni yuvilgan va yuvilib tushgan qismlarida ma'danli o'g'itlar me'yori ikki xil ya'ni $N_{250}P_{175}K_{125}$ va $N_{200}P_{140}K_{100}$ kg/ga bo'lishiga qaramay oqova suvi bilan yuvilib tushgan loyqa tarkibidagi suyuq qoldiqda ham qattiq qoldiqda ham oziqa unsurlarini yuvilish miqdorlari kamayganligi aniqlangan.

Kuzgi qattiq bug'doy amal davri boshida va oxirlarida tuproqdagi nitratli azot, harakatchan fosfor, almashinuvchi kaliyni va bularni umumiy shakllari miqdorini aniqlab, tajriba qo'yishdan oldin qiyalikni yuvilgan qismidan olingan tuproq na'munalarini agrokimyoviy tahlil qilinganda 0-30 sm qatlamda azot miqdori 0,150% va 30-50 sm qatlamda 0,109 % fosfor miqdori tegishli ravishda 0,155% va 0,106%, gumus miqdori 0,805 va 0,405% ni tashkil etganligi qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkichlar tajribaning yuvilib tushgan qismida aniqlanganda azot tuproqni 0-30 sm li qatlamida 0,210% va 30-50 sm da 0,118%, fosfor miqdori 0,171%, va 0,111% gumus miqdori 1,007% va 0,625% ni tashkil qilganligi aniqlanib tajriba maydonining yuvilgan qismiga nisbatan yuvilib tushgan qismida tuproq unumdorligi yuqori ekanligi qayd etilgan.

Ilmiy-tadqiqotlarining amal davri oxirida tuproqdagi oziqa unsurlarining harakatchan shakli aniqlanganda amal davri boshiga nisbatan barcha variantlarda biroz pasaygan bo'lsada ma'danli o'g'itlarning me'yorlari turlicha ta'sir etganligini kuzatilgan.

Bunga ko'ra tuproqning yuvilgan qismida amal davri boshiga nisbatan ma'danli o'g'itlar me'yori $N_{200}P_{140}K_{100}$ kg/ga qo'llanilgan variantda nitrat miqdori 0-30 sm qatlamda 1,7 mg/kg, 30-50 sm qatlamda esa 0,3 mg/kg ga kamayganligi, fosfor miqdorida ham yuqoridagi qonuniyat saqlangan holda tegishli ravishda 9,8-2,2 mg/kg, kaliy miqdori 47,1-30,0 kg/ga kamayganligi kuzatilgan. (2-rasm)



2-rasm. Kuzgi bug'doyni amal davri oxirida tuproqda nitrat shaklidagi azot miqdori 2019 yil (mg/kg)

Ma'danli o'g'it me'yorlari ortishi bilan tuproq tarkibidagi oziqa elementlarining saqlab qolinishi kamayganligi kuzatilib, tajribadagi ushbu yuvilgan

qismida eng kam kamayish gektariga $N_{250}P_{175}K_{125}$ kg/ga qo'llanilgan variantda kuzatilib, nitrat miqdori 0,1 mg/kg, fosfor miqdori 0,2–1,5 mg/kg, kaliy miqdori 1,0–5,0 mg/kg ga kamayganligi kuzatilgan.

Tajriba maydonning yuvilib tushgan qismida ushbu tahlillar o'tkazilganda yuqoridagi qonuniyatga mos tarzda ma'danli o'g'it me'yorlari ortgan sari tuproqdagi oziqa elementlari saqlanib qolinishi turlicha bo'lib, bunda ham eng yuqori ko'rsatkich gektariga $N_{200}P_{140}K_{100}$ kg/ga qo'llanilgan variantida kuzatilgan.

2019 yil kuzgi qattiq bug'doy amal davri oxirida 0-30 qatlamida qiyalikni yuvilgan qismida chirindi miqdori o'rtacha 0,900–0,902% ni, umumiy azot miqdori 0,085–0,087% va fosfor miqdorlari 0,097–0,098% tashkil etgan bo'lsa, 30–50 qatlamda qiyalikni yuvilgan qismida chirindi miqdori o'rtacha 0,405–0,410% ni, umumiy azot miqdori 0,051–0,065% va fosfor miqdorlari 0,089–0,091% tashkil etgan.

Yuvilib tushgan qismida esa chirindi miqdori 0–30 qatlamda o'rtacha 0,900–0,902% ni, umumiy azot miqdori 0,085–0,087% va fosfor miqdorlari 0,097–0,098% tashkil etgan bo'lsa, 30–50 qatlamda qiyalikni yuvilgan qismida chirindi miqdori o'rtacha 1,34–1,54 % ni, umumiy azot miqdori 0,009–0,120 % va fosfor miqdorlari 0,142–0,148% tashkil etgan.

Dissertatsiyaning **“Qiyalikni tuprog'i yuvilgan va yuvilib tushgan qismlarida ma'danli o'g'itlar me'yorlarni tabaqalab qo'llashni kuzgi qattiq bug'doyning o'sishi va rivojlanishiga ta'siri”** deb nomlangan to'rtinchi bobida kuzgi qattiq bug'doyning ko'chat qalinligi, kuzgi qattiq bug'doy o'suv davrining davomiyligiga qo'llanilgan ma'danli o'g'itlarining me'yorlarini bog'liqligi, kuzgi bug'doyning umumiy va mahsuldor poyalar soni, ma'danli o'g'itlarni tabaqalab qo'llashning kuzgi qattiq bug'doyning o'sishi va rivojlanishiga ta'siri, tabaqalab o'g'itlashning qattiq bug'doyning biometrik ko'rsatkichlariga ta'siri, ma'danli o'g'it me'yorlarini tabaqalab qo'llashning kuzgi qattiq bug'doyning don va somon hosildorligiga ta'siri, ma'danli o'g'itlarni tabaqalab qo'llashning kuzgi qattiq bug'doy donini sifat ko'rsatkichlariga ta'siri bo'yicha ma'lumotlar bayon etilgan.

Tadqiqotlarda o'g'itlarni tabaqalab qo'llash me'yorlariga bog'liq holda qiyalikni yuvilgan qismida kuzgi bug'doyning ko'chat qalinligi 2018–2019 yil sharoitida 352,1 m²/dona dan 352,8 m²/dona gacha o'zgarib bordi. Qiyalikni yuvilib tushgan qismida ushbu ko'rsatkich 362,4–364,7 m²/dona ni tashkil etgan.

Kuzgi qattiq bug'doyning tuplash-naychalash fazasi davomiyligiga o'g'itlar bilan oziqlantirish me'yorlari ham o'z ta'sirini ko'rsatib, naychalash fazasining boshlanishi, tuplash-naychalash davri davomiyligi aniqlanganda, qiyalikni yuvilgan qismida ushbu faza davomiyligi 73-76 kun, yuvilib tushgan qismida esa 72-80 kun davom etishi ma'lum bo'lgan. Ma'danli o'g'itlar me'yorining oshirib borilishi pishish fazasining 1-3 kunga uzayishiga olib kelib, aksincha o'g'it kam berilganda o'suv davrining qisqa bo'lishi aniqlangan.

Andijon viloyatining irrigatsiya eroziyasiga chalingan tipik bo'z tuproqlari sharoitida qattiq bug'doyning o'g'itlar bilan oziqlantirish me'yorlarining oshirib borilishi bilan o'suv davri 7-15 kunga uzayishi qayd etilib o'g'itlar me'yorining oshirib borilishida tuproqdagi namlik boshqa variantlarga nisbatan yuqori bo'lishi,

tuproqdan parlanadigan suv miqdori kamayishi ta'sirida ekinlarning hayotchanligi oshishi, fotosentetik faollikning ortishi bilan izohlagan.

